

Yakuniy baholash (YAB) - semestr yakunida talabanning muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralariga asoslangan yozma ish, og'zaki so'rov, test, ijodiy ish va boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Talabning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

- 5 (a'lo) baho:
 - xulosa va qaror qabul qilish;
 - ijodiy fikrlay olish;
 - mustaqil mushohada yuritish;
 - olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
 - mohiyatini tushunish;
 - bilish, aytib berish;
 - tasavvurga ega bo'lish.
- 4 (yaxshi) baho:
 - mustaqil mushohada yuritish;
 - olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
 - mohiyatini tushunish;
 - bilish, aytib berish;
 - tasavvurga ega bo'lish.
- 3 (qoniqarli) baho:
 - mohiyatini tushunish;
 - bilish, aytib berish;
 - tasavvurga ega bo'lish.
- 2 (qoniqsiz) baho:
 - dasturi o'zlashtirmaganlik;
 - fanning mohiyatini bilmaslik;
 - aniq tasavvurga ega bo'lmislik;
 - mustaqil fikrlay olmaslik.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Mark A., Friend P., Fundamentals of Occupational safety and health. Beman Press.Germany, 2007
2. Ibragimov E., Xojiyev A. Xavfsizlikning texnik vositalari. T.: TIMI, 2014, 202 b.
3. Ibragimov E.I., Gazinazarova S., Yuldashev O.R., Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev I.I.M. Tankidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston, 2017.-1046.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratiy O'zbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.-566.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajegimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
7. Yudoshev O.R., Raximov O. R, Xujaikulova R.T, Xasanova O.T., "Mehnatni muxofaza qilish". - T.: 2005.
8. Qudratov A. va b.. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma'ruza kursi. "Aloqachi" -T.: 2005. -355 b.
9. Yormagov F., Isamuxamedov Y. Mexnat muxofazasi. -T.: O'zbekiston, 2002. - 384 b.
- Y.Mikryukov V.Y. Bezopasnost jiznedeyatelnosti. Rostov - Don. 2006.
11. Bezopasnost jiznedeyatelnosti. /Pod red. Mixaylova L.A. Kiyev - Xarkov - Minsk, 2007. 301 s.
12. "Xavfli ishlab chikarish obyektlarining sanoat xavfsizligi tugrisida"gi konun. O'zbekiston Respublikasi Konun xujjatlari toplami. -T.: 2006 y., 39-son.
13. "Texnik jixatdan tartibga solish tugrisida"gi konun. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, -T.: 2009 y., 17-son.

Internet saytlari

14. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
15. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 985

2022 yil 29 08

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Bozorov O.N.

"25" 08 2022 yil

"XAVFSIZLIKNING TEXNIK VOSITALARI" fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	600000	-	Xizmatlar sohasi
Ta'lim sohasi	640000	-	Hayot faoliyati xavfsizligi
Ta'lim yo'nalishi	5460200	-	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi

Jami o'quv soati: 130

Shu jumladan	Jami	7-semestr	8-semestr
Ma'ruza	36	36	-
Amaliy mashg'ulotlar	18	18	-
Semenar mashg'ulotlar	18	18	-
Mustaqil ta'lim soati	58	58	-

Fanning ishchi o'quv dasturi, ishchi o'quv reja va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent irregatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish institutining 2020 yil « 30 » 04 dagi « 10 » -sonli buyrug'i tasdiqlangaligi bilan fan o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

A.X.Xujayulov – QMII, "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasining assistenti

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasining yig'ilishida (bayon № 1, 26.08.2022 y.), "Geologiya va konchilik ishi" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 1, 27.08.2022 y.) va Institut Uslubiy Kengashida (bayon № 1, 28.08.2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O'quv-uslubiy boshqarma

boshlig'i:

dos. Sh. Turdiyev

Geologiya va konchilik ishi fakulteti

uslubiy komissiya raisi:

dots. M.G'ofirov

Ekologiya va mehnat muhofazasi

kafedra mudiri:

t.f.d. R.A. Eshonqulov

I. O'quv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Qishloq va suv xo'jaligida zamonaviy texnik jihatdan murakkab va yuqori quvvatli texnikalarning qo'llanilishi, texnologik jarayonlar tezligining oshib borishi, intensiv texnologiyalarning tadbiriq etilishi natijasida katta mexnat samaradorligiga erishadi. Yuqori unumdorlik mashina va mexanizmlar konstruksiyalarini murakkabligi va ish rejimini kuchaytirish hisobiga erishiladi. Buning natijasida mashina va mexanizmlarda xamda ularning atrofida xatarli omillar doimiy yoki davriy ravishda yuzaga kelib turadigan xavfli zonalar xosil bo'ladi.

Ishlovchilarni xavfli zonalar doirasiga kirib qolishidan va ularni xavfli omillar ta'siridan himoya qilish maqsadida mashina va mexanizmlar xavfsizlikni texnik vositalari bilan ta'minlanadi.

Xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalarining yuqori darajada javob berishi ularni loyihalash, hisoblash, qurish, ishlatish, va mukammallashtirishning qanaqa darajada to'g'ri bajarilganligi va amalga oshirilganligiga bog'liq bo'ladi. Bu masalalarni to'g'ri hal qilishda "Xavfsizlikning texnik vositalari" fani nazariy va amaliy jihatdan yordam beradi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fan o'qitishning maqsadi – ishlab chiqarishda xavfsiz va sog'lom ish sharoitini yaratish uchun alohida yoki mashina mexanizmlar konstruksiyasida qo'llaniladigan xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalarining konstruktiv tuzilishi va ishlash prinsiplari o'rgatish, hamda ularni hisoblashga talabalarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashdan iborat.

Ushbu maqsadga eritish uchun fan talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, xodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv xamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan buyicha talabalarining bilim, kunikma va malakalariga quyidagi talabalar quyiladi. **Talabalar:**

- ✓ "inson – mashina" tizimining moxiyati;
- ✓ xavfsizlikning texnik vositalari fanining asosiy tushuncha va ta'riflari;
- ✓ xavfsizlik talabalarini tartibga soluvchi standartlar, texnik talablar va boshqa hujjatlar;
- ✓ mashina va mexanizmlar konstruksiyasiga qo'yiladigan asosiy texnika xavfsizligi qoida va talablari;
- ✓ mashina va mexanizmlarning xavfsizligini ta'minlash usullari;
- ✓ uskunalar, qurilmalar, mashina va mexanizmlar konstruksiyasiga kiruvchi va alohida konstruksiyaga ega bo'lgan xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalariga qo'yiladigan xavfsizlik talablari tug'risida tushunchaga ega bo'lish;
- ✓ xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalarining buzilmaslik va ta'mirlashga yaroqlik ko'rsatkichlarini;
- ✓ xavfsizlikni ta'minlashning asosiy texnik vositalari va ularning klassifikatsiyasini;
- ✓ xavfsizlikning texnik vositalarini pasportlashni;
- ✓ xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalarini himoyalashni;
- ✓ texnik vositalarning maqbul variantlarini tanlashda mustaqil qarorlar qabul qilishni bilishi va ularidan foydalana olishi;
- ✓ texnika xavfsizligi bo'yicha meyoriy-huquqiy hujjatlardan amalda foydalanish;
- ✓ xavfli va zararli omillarning turiga qarab himoyalashning texnik vositalarini tanlash;
- ✓ texnika xavfsizligi bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish;
- ✓ mavjud xavfsizlikni ta'minlashning texnik vositalarini mukammallashtirish bo'yicha rejalar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ✓ xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalaridan amalda foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

III. HFX fanining boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqligi

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani "Mehnat muhofazasi", "Muhandislik psixologiyasi", "Psixofiziologiya", "Ergonomika", "Texnikaviy estetika", "Atrof muhit himoyasi va ekologiya", "Favqulodda holatlar va fuqoralar muhofazasi" kabi fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Ushbu fanlar bilan birga tadqiqot qiladi va o'rganadi. Lekin, insonning hayot faoliyatida barcha turdagi bog'lanishlar bir vaqtda yuzaga keladi va shu sababli inson o'z faoliyatida bir necha omillar bilan bog'lanadi, o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli insonning hayot faoliyati davridagi umumlashgan xavfli va zararli

faktorlarning inson sog'ligiga va mehnat qobiliyatiga birgalikda ta'sirini alohida mustaqil fan - "Hayot faoliyati xavfsizligi" o'rganadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'rganish nafaqat texnosferada xavflar tug'ilganda, balki **ishlab chiqarish jarayonida** ishlovchilarni kasb kasalligiga chalinishlarini qisqartirish, baxtsiz hodisalar oldini olish shuningdek, biosferada (atrof-muhitda) yuz beradigan favqulodda vaziyatlarda insonlar o'limi va moddiy zararlarni miqyosini kamaytirish imkonini beradi.

IV. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyovarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

muammoli mavzular bo'yicha;
mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;
ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
oldinga siljigan ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;

mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan **amalgama oshirishni nazarda tutadi**.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Dastur talabalar bilimni reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning yangi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish, darslik, o'quv qo'llanmalar va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalaridan, ma'ruzalar o'qish, elektron plakatlarni va internet tarmog'idan foydalaniladi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitish jarayonida quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

Shaxsa yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimining barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqligini, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv munosabatlari yaratish, zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini ijodiy tarzda ko'llanilishi dialektik mushohadani shakllantiradi va rivojlantiradi natijada talabani mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash-yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida va butun kurs davomida o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib boriladi. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Power Point" prezentatsiya va "Excel" elektron jadval dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimlari baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ulubiy ko'rsatmalar ko'rinishidagi tarqatma materiallar tayyorlanadi, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

IV.1. "Xavfsizlikning texnik vositalari" fani boyicha 5460200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishida soatlarning taqsimlanishi

Umumiy o'quv soati	130 soat
Shu jumladan:	
Ma'ruza	36 soat
Amaliy mashg'ulotlar	18 soat
Seminar mashg'ulotlar	18 soat
Mustaqil ta'lim	58 soat

Ma'ruza mashg'ulotlari

T/R	Mavzu, bo'lim nomi	Soat
	1-modul. "Xavfsizlikning texnik vositalari" fanining maqsadi, vazifalari, tushunchalari va ta'riflari.	
1	"Xavfsizlikning texnik vositalari" fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari.	2
2	"Inson - mashina" tizimi va uning xususiyatlari.	2
	2-modul. Mashina va mexanizmlar konstruksiyasiga va xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalariga qo'yiladigan umumiy xavfsizlik talablari.	
3	Mashina va mexanizmlar konstruksiyasiga bo'lgan umumiy xavfsizlik talablari	2
4	Mashina va mexanizmlarning alohida konstruksiyaga ega bo'lgan xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalariga bo'lgan xavfsizlik talablari.	2
5	Xavfsizlikni baholashga qo'yiladigan umumiy talablar.	2
	3-modul. Xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalarining klassifikatsiyasi.	
6	Xavfsizlikni ta'minlash vositalarining asosiy texnik vositalari.	2
7	Xavfsizlikni ta'minlash vositalarining klassifikatsiyasi.	2
	4-modul. Xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalarining ishonchlik va ta'mirlashga yaroqlilik ko'rsatkichlari	
8	Xavfsizlikni ta'minlash texnik vositalarining ishonchligi va yaroqlilik ko'rsatkichlari.	2
	5-modul. Shovqindan va titrashdan himoyalashning texnik vositalari	
9	Shovqindan himoyalashning texnik vositalari va uskunalarining turlari.	2
10	Titrashdan himoyalashning texnik vositalari va uskunalarining turlari.	2
	6-modul. Xavfsizlikni ta'minlashning to'siq vositalari	
11	To'siq vositalarining maqsadi, vazifasi, turlari.	2
12	O'tilib ketuvchi zararlardan va issiqlik nurlanishidan himoyalovchi to'siq vositalari.	2
	7-modul. Xavfsizlikni ta'minlashning saqlovchi qurilmalari	
13	Saqlovchi qurilmalarning maqsadi, vazifasi, turlari va ularning klassifikatsiyasi.	2
14	Mexanik yuklanishlardan saqlovchi qurilmalar turlari va ularni hisoblash.	2
15	Mashina va mexanizmlar qismlarining belgilangan chegaradan chiqmasligini	2

saqlovchi qurilmalar turlari va ularning ishlashi	
8-modul. Xavfsizlikni ta'minlashning tormoz va blokirovka qurilmalari	
16	Tormoz qurilmalarining maqsadi, vazifasi, turlari va ularning klassifikatsiyasi.
17	Blokirovka qurilmalarining maqsadi, vazifasi, turlari va ularning klassifikatsiyasi.
18	Yuk ko'tarish-tushirish mashina va mexanizmlaridagi xavfsizligini ta'minlash vositalari, uskuna va qurilmalari.
Jami:	
36	

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalarni amaliy mashg'ulotlar, ma'ruzalar matni va tavsiya etilgan adabiyotlar xamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda bajarishni o'z ichiga oladi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar ishlab chiqarish korxonalarining mexnat muxofazasi bo'limlari tomonidan yuritiladigan meyoriy xujjatlar bilan ishlash kunikmalarini shakllantiradilar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

T/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soat
1.	Yuk ko'tarish-tushirish mashinalarining xavfsizligini ta'minlash uskuna va qurilmalarining turlarini o'rganish.	2
2.	Shovqin to'suvchi va yutuvchi vositalarni xisoblash.	2
3.	Traktor, meliorativ va qurilish mashinalari kabinasining titrash izolyatorlarini xisoblash.	2
4.	Kulachokli saqlash muftasini xisoblash.	2
5.	Saqlash plastinlarini hisoblash.	2
6.	Saqlash klapanlarini hisoblash.	2
7.	Tormoz qurilmalarini hisoblash.	2
8.	Issiqlik nurlanishidan himoyalovchi tusiq vositalarini hisoblash.	2
9.	Blokirovka qurilmalarini xisoblash.	2
Jami:		18

Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabalarni seminar mashg'ulotlarni ma'ruzalar matni va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar, internet materiallari bilan ishlashni, standart va malaka talablariga mos ravishda taqdimot, turli xil mashq o'yinlar bilan bajarishni o'z ichiga oladi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

T/r	Seminar mashg'ulotlarining mavzulari	Soat
1	"Xavfsizlikning texnik vositalari" fanining rivojlanish bosqichlari va fan tomonidan o'rganiladigan muammolar.	2
2	Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha meyoriy - texnik xujjatlarni o'rganish.	2
3.	Ishlab chiqarish jarayonlari va uskunalarga bo'lgan asosiy xavfsizlik talablari keltirilgan xujjatlarni o'rganish.	2
4	Mashina-traktor agregatining va boshqa mexanizmlarning xavfsizlik darajasiga baxo berishni o'rganish.	2
5	Xavfsizlik ranglari va belgilarining klassifikatsiyasini o'rganish.	2
6	Xavfsizlikni ta'minlashda oldini oluvchi (profilaktik) sinashning axamiyatini o'rganish.	2

7	Suyultirilgan, eritilgan va siqilgan gazlar saqlanadigan idishlarni yuklash - tushirish va tashishda xavfsizlik talablarini o'rganish.	2
8	Bug' va suv qozonlarining xavfsizligini ta'minlash o'ichash - nazorat asboblarning turlari va ishlash prinsiplarini o'rganish.	2
9	Ko'chma kompressor qurilmalarini ishlatishda xavfsizlikni ta'minlash talablarini o'rganish.	2
Jami:		18

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Meliorativ va qurilish mashinalaridagi xavfsizlikni ta'minlash vositalarini o'rganish.
2. Qishloq xo'jaligi mashinalaridagi xavfsizlikni ta'minlash vositalarini o'rganish.
3. Nasos agregatlari va qurilmalaridagi xavfsizlikni ta'minlash vositalarini o'rganish.
4. Kuchlanish ostidagi qurilmalarida foydalaniladigan xavfsizlikni ta'minlash vositalarini o'rganish.
5. Soxalarda foydalaniladigan mexanizmlar, asbob-uskunalariga quyiladigan xavfsizlik talablari.
6. Elektr toki zarbasidan ximoya qiluvchi vositalarni o'rganish.
7. Xavfsizlikni ta'minlashda xavfsizlik gabaritlarini va oraliqlarni meyorlash axamiyatini o'rganish.
8. "Xavfsizlikning texnik vositalari" fani bo'yicha glossariy tuzish.
9. Xavfsizlikni ta'minlashda foydalaniladigan ximoya vositalarini o'rganish.

Mustakil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish

Talabalar bilimini nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom (Nizom O'z.R. OO'MTVning 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yatidan o'tkazilgan. O'z.R. OO'MTVning 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yatidan qayta o'tkazilgan) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Joriy nazorat - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari buyicha. og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat - semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallanganidan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralariga asoslangan "Yozma ishi" yoki "Og'zaki" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish.

Talabalarining fan bo'yicha o'zlashtirishini aniqlash uchun quyidagi baholash turlari o'tkaziladi:

Oraliq baholash (OB) - semestr davomida talabaning fan o'quv dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 2 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ishi, og'zaki so'rov, test o'tkazish, kollokvium, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyixasi, ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.